



MEDIA TA'LIM SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISNING PEDAGOGIK ASOSLARI.

Suleymanova R.D.

GulDU o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12161663>

ARTICLE INFO

Received: 17th June 2024

Accepted: 18th June 2024

Published: 19th June 2024

KEYWORDS

media, tovush, savodxonlik, yozuv, gazeta, mediata'lim vositalari, turlari, jurnal, litografiya, ta'lim jarayoni, telegraf, telefon, ovozli yozuv, pedagogik maxorat, televideniya, kompyuter, internet.

ABSTRACT

Maqolada mediata'lim muhiti asosida axborot savodxonligini shakllantirishning pedagogik jixatlari, o'sib kelayotgan yoshlarimizning jamiyatdagi o'rni, ularda media madaniyatning shakllanishining dolzarbligi, mediata'lim vositalari, turlari, va ulardan ta'lim jarayonida foydalanish to'g'risidagi fikr yuritilgan hamda ilmiy takliflar berilgan.

Hozirgi kunda yurtboshimiz Sh.M.Mirziyoev tomonidan amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar vatanimizning istiqboli, tinchligi, obodligiga qaratilgan desak mubolag'a bo'lmaydi. Respublikamizning bu boradagi o'lkan taraqqiyoti va farovonligini, o'zining hayot faoliyati hamda kelajagi bilan uzviy bog'lab, maqsad sari intiladigan intellektual yoshlarni tarbiyalash eng muhim vazifalardan sanaladi.

Mamlakatimiz insonlarning yashash shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlarga bilim berish, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish va buning natijasida jamiyat hayotida faol ishtirok etish, oilasi, kasbi, Vatani sevish kabi ijobiy hislatlarni uyg'otishda mediata'lim sohasiga katta e'tibor qaratmoqda. Shu bois ham jamiyat taraqqiyotiga tegishli bo'lgan barcha sohalarga alohida ahamiyat berilmoqda. Bu borada dalatimiz rahbarining quyidagi fikrlari o'rnlidir: "Biz yoshlarga doir davlat siyosatini hech og'ishmasdan, qat'iyat bilan davom ettiramiz nafaqat davom ettiramiz, balki bu siyosatni eng ustuvor vazifamiz sifatida bugun zamon talab qilayotgan yuksak darajaga ko'taramiz. Yoshlarni mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkoniyatlarini safarbar etamiz" [1].

Media va boshqa axborot manbalari tomonidan taqdim etilayotgan axborotdan to'g'ri foydalanish, insonlarning axborotga bo'lgan o'z ehtiyojlarini anglashi, ma'lumotni topish va unga egalik qilish xamda sifatini baxolash imkonini beradi.

«Axborot» atamasi ko'plab tavsifga ega. «Kompyuter – (inglizcha computer – hisoblayman) – oldindan berilgan dastur (programma) bo'yicha ishlaydigan avtomatik qurilma. Elektron hisoblash mashinasi (EHM) bilan bir xildagi atama.

Biroq kompyuter hisoblash ishlarini bajarishdan tashqari, uning funksiyasi ancha keng. EHMLarning rivojlanishida kompyuterning bir necha avlodlarini ko'rsatish mumkin. Bu avlodlar element turlari, konstruktiv-texnologik xususiyatlari, mantiqiy tuzilishi, dastur

ta'minoti, texnik tafsilotlari, texnikadan foydalanishning qulaylik darajasi bilan bir-biridan farq qiladi»

Bugungi yoshlar yangicha fikrlashga va zamon bilan hamnafas bo'lishga intilmoqda. Uning asosi esa intellekt hisoblanadi. Kompyuter texnologiyalarining yuqori sur'atdagi taraqqiyoti insoniyat tafakkurida yanada sermazzun ahamiyat kasb etmoqda. Axborot asri deb nom olgan asrimizni telekommunikatsiyasiz tasavvur qilish qiyin. So'ngi rusumdagi telefon, planshet, noutbuk va kompyuterlar internet orqali bizga kerakli ma'lumot va yangiliklarni bir zumda aniqlashda beminnat xizmat qiladi. Hozirgi zamonda internet tarmog'idagi saytlardan o'zimizga kerakli bo'lgan axborotlarni bir necha daqiqalarda olishimiz mumkin. Bu biz uchun juda qulay, oson va vaqtdan yutishimiz imkonini beradi.

Barchamizga ma'lumki hozirgi davrda hayotimizni internetsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Dunyo bo'ylab internetning shiddat bilan rivojlanishi natijasida undan faqatgina ma'lumotlarni qabul qilish hamda tarqatish bilan cheklanib qolmasdan, balki bundanda katta ishlarni bajarish imkoniyatlari tug'ildi. Internet orqali insonlar uzoqdagi do'stlari, yaqinlari bilan bemalol ko'rib gaplashadigan, bir-biriga xabarlar yuboradigan bo'ldi. Tasavvur qilish uchun birgina misol keltirishning o'zi kifoya qiladi deb o'ylayman. Yana bir misol avvallari bir inson o'zining yaqiniga hat yozmoqchi bo'lsa, u xat yozish uchun qog'oz qalam olishi, unga gaplarni yozishi, uni esa po'chtaga olib borishi kerak bo'lardi. Xat tashuvchi uni olib kerakli joyga elitib bergunicha oradan bir necha kun vaqt o'tardi.

Hozirda esa bunday ishlar oddiygina bir hol bo'lib qoldi. O'sha ishlarni internet orqali inson uzog'i bilan besh daqiqada bajarishi mumkin. Bunga o'xshash misollarni ko'plab keltirish mumkin. Shuning uchun hozirgi kunda internetdan foydalanuvchilarning soni kundan kunga ko'payib, internetdan foydalanish borasida ko'pgina xalqlar ilgarilab ketmoqda. Qirq olti mamlakatda ellik ming kishidan so'rovnomaga olgan mutaxassislar yaqin Sharqdagi, shuningdek Xitoyda internetdan foydalanuvchilar bu borada rivojlangan mamlakatlar aholisidan o'zib ketishdi deb xulosa chiqarishdi. So'rovlar natijasiga ko'ra, Misr va Saudiya Arabistonining ellik besh foiz aholisi internetga ko'milib yashaydi. Birorta Yevropa mamlakati o'ntalik ro'yxatga kira olmadi. Rivojlangan mamlakatlar aholisi internetda asosan do'stlari bilan suhbatlashadi. Janubiy Amerika, Yaqin Sharq va Xitoyda esa foydalanuvchilar haftada besh soatdan ko'p vaqtini ijtimoiy tarmoq saytlarida o'tkazadi. Qolgan to'rt soat esa elektron pochta orqali xat jo'natishga sarflanadi. Rivojlangan mamlakatlarda, aksincha, asosiy e'tibor elektron pochta orqali muloqotga qaratilar ekan. Ijtimoiy tarmoqdan eng ko'p foydalanadiganlar Malayziyaliklar bo'lib, har bir foydalanuvchining o'rtacha ikki yuz o'ttizdan ko'p "internetda do'sti" bor. Malayziyadan keyingi o'rinni Braziliyaliklar egallab turibdi. Har bir narsani yaxshi tomoni bo'lgani kabi yomon jihatlari ham bor. Internetda foydali ma'lumotlar bilan bir qatorda, zararli behayo, buzuq ma'lumotlar ham keng tarqalgandir. Inson ma'naviyatiga ta'sir qiladigan foxishabozlik, behayolikni, axloqsizlikni targ'ib qiluvchi saytlar juda ham ko'payib bormoqda. Ba'zi odamlar internet orqali bir-birlarini aldamoqda, bir-biriga tuxmat qilmoqda, u tufayli ko'pgina yosh oilalar ajrashib ketish holatlari kuzatilmoqda va hokazo. Internet orqali nafaqat axloqiy buzuqliklar, balki siyosiy, iqtisodiy, moliyaviy va boshqa ko'pgina sohalarda ham ko'plab jinoyatlar sodir etilmoqda. Yuqorida keltirib o'tilgan gaplar shuni ko'rsatib turibiki internetni biz ham yaxshilikka, ham yomonlikka ishlatishimiz mumkin ekan. Bizni vazifamiz undan faqatgina yaxshilik yo'lida foydalanishimiz kerak. Buning uchun esa dinimizning umumiy ta'limotlari asosida internetdan foydalanish odoblarini yo'lga qo'yishimiz kerak bo'ladi. Avvalo internetdan foydalanmoqchi bo'lgan odam niyatini to'g'ri qilishi kerak. Ana shunda bu ishdan foyda topadi. Internetdan foydalanishdan oldin vaqtni zoya ketkazmaslikni, uning har lahzasi hisobli ekanini o'ylash kerak. Internetga kirishdan oldin ish rejasini yaxshilab tuzib olish kerak. Internetda uzoq vaqt o'tirish ham zararli bo'lib, u sababli inson o'ziga xos xastaliklarga chalinishi mumkin. Ular o'zlaricha, "bu ish hayotdagi saviyada emas-ku", degan xayolga borishlari mumkin. Aslida esa, bu noshar'iy ishlarni saytda o'ziga ravo ko'rganlarning axloqiy saviyasida nuqson bor.

Shuning uchun inson har bir ishni qilayotganda Alloh taolo uni ko'rib turganligini unutmaslik kerak. Zero Alloh taolo G'ofir surasida marhamat qiladi: "U zot ko'zlarining xiyonatini ham, ko'kslar yashirgan narsalarni ham bilir" (19-oyat). Alloh taolo bilmaydigan hech narsa yo'q. U zot hamma narsani biladi. Hattoki hech kimga bildirmasdan, dilda tugib qo'ygan narsalarni ham biladi. Shunday bo'lgandan keyin boshqa narsalarni bilishda shakl shubha yo'q. Odamlar buni bilib qo'ysinlar. Internetda ishlashni «Bismillahir rohmahir rohiym» bilan boshlash va ish boshlashda o'qiladigan duolardan bilganicha o'qish kerak. Sayt egalarining ma'naviy-ma'rifiy huquqlariga to'la rioya qilish chin musulmonlik burchidir.

Ishxona yoki boshqa biror shaxsning internetidan ruxsatsiz foydalanish mumkin emas. Bolalarning internet va kompyuterdan foydalanishini oqilona va e'tibor bilan yo'lga qo'yish kerak. Oila va ta'lim bolaning epistemologik nuqtai nazarining shakllanishida katta ta'sir kuchiga ega. Ular o'quvchining axborotni qayta ishlash usullariga va bilimlarni tanqidiy talqin qilishga tayyorligiga salmoqli ta'sirini o'tkazadi. O'quvchilar ziddiyatli axborotga duch kelganida, o'qituvchilar ularni turli xil manbalardan axborot izlashga yo'naltirishlari lozim. Bu uz navbatida o'quvchilarni yangi axborotni mavjud bilimlar asosida baxolashga xamda o'z nuqtai nazarini shakllantirishiga zamin yaratadi. Shuningdek, o'qituvchilar bitta savolga bir nechta to'g'ri javob mavjud bo'lishi mumkin degan g'oyani o'quvchilar ongiga yetkaza olishlari lozim. Zamonaviy yoshlarni ko'pincha «raqamli olamning aboriginlari» deb atashadi. Ularning media soxasidagi ko'nikmalari, o'qituvchilarning ko'nikmalariga nisbatan yaxshirok rivojlangan deb xisoblanadi. Bunday umumlashtirish anik o'quvchilarning media savodxonlik darajasi o'rtasidagi tafovutni xisobga olmaydi, u esa o'z navbatida juda katta bo'lishi mumkin. Aksariyat o'quvchilar uchun media va media kontentdan foydalanish tabiiy va odatiy jarayon bo'lishiga qaramasdan, o'qishdan tashqari vaqtda xamma bolalarda xam mediadan foydalanish imkoniyati yo'q.

Bundan tashqari media bilan ishlash kunikmalari maksadli ravishda yunaltirilgan o'qitish jarayonisiz o'z o'zidan rivojlanmaydi. «Media va axborot savodxonligi» tushunchasi XXI asrda o'zini o'rab to'rgan borliqni tushunishi uchun insonga zarur bo'lgan turfa xil ko'nikmalar to'plamini anglatadi.

Media va axborot savodxonligi media xamda kutubxonalar, arxivlar va Internet kabi boshqa axborot yetkazuvchilarining shaxsiy xayotimiz va demokratik jamiyat xayotidagi roli va vazifalari bilan uzviy bog'liqdir. U insonning kommunikatsiya va o'z fikrini erkin bayon qilish, g'oyalar va axborotni izlash, qabul qilish, ular bilan almashinish borasidagi xuquqlarini amalga oshirishga ko'maklashadi.

Media va axborot savodxonligi media va boshqa axborot yetkazuvchilar nima ishlab chiqarayotgani, qanday xabarlarini tarqatayotgani bo'yicha mavjud ma'lumotlar asosida, media va boshqa axborot yetkazuvchilarni baxolash xamda maqsadli auditoriya rolini baxolash imkoniyatini beradi.

Media va axborot borasida savodxon insonlar quyidagi ko'nikmalarga ega bo'ladilar: medianing va ular orqali taqdim etilayotgan axborot shakllarining ta'sirini yaxshi tushunish; uylangan mustaqil qarorlar qabul qilish; atrof-muhit bo'yicha yangi ma'lumot olish; umumiylik xissining shakllanishiga ko'ra; jamoaviy diskursni qo'llab-quvvatlash; hayoti davomida uzluksiz ta'lim olish; axborotni yaratish; tanqidiy fikrlash; mediada o'zini namoyon qilish va ijodiy maqsadlarda foydalanish; mediadan o'z xavfsizligini ta'minlagan va ijtimoiy mas'uliyatni xis qilgan xolda foydalanish; demokratik jamiyat xayotida va global axborot tarmogida faol ishtirok etish. Mediani ifoda etish shakllari va vositalari muntazam ravishda rivojlanib bormoqda. Demak, media va axborot savodxonligi ko'nikmalari xam uzluksiz tarzda takomillashib borishi lozim. Xar bir o'qituvchi o'z o'quvchilariga media madaniyatda yashash uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni beruvchi media pedagog bo'lishi mumkin.

O'qituvchilar tomonidan mediata'lim o'z faoliyatida foydalanish uchun kashf qilinayotgan yondashuvlarning turli-tumanligi bir qator afzalliklarga ega. O'qituvchilar o'quvchilarini

tanishtirayotgan media turlari qanchalik xilma-xil bo'lsa, media ta'lim shunchalik sermazmun va chuqurroq bo'lib boradi.

Bugungi kunda pedagoglar duch kelayotgan eng katta vazifa - bu bolalar va yoshlarni axborot dengizida o'z yo'lini topishga o'rgatishdir. Ammo, media va axborot savodxonligini shakllantirish boshqa xar qanday ta'lim turidan farq qilmaydi: buning zamirida o'quvchilar bilan ishlash yotadi.

O'qituvchi yoshlar media madaniyatni chuqur bilishi shart emas, uning texnikasi bo'yicha daxo bo'lishi xam kerak emas, ammo u tarmok odob-axdoqiga tegishli masalalar borasida o'z xayotiy tajribasiga tayangan xolda, maslahat berishga qodir bo'lishi shart. O'qituvchi media bo'yicha ishni media bilan o'zining munosabatlari xaqida o'ylashdan boshlashi kerak: men mediadan qanday foydalanaman? Ular ishingam qanday ta'sir qiladi? Media savodxonlik bo'yicha o'qituvchining malakasi shaxsiy media ko'nikmalari, tajribasi va mediaga bo'lgan qiziqishiga, media savodxonlikning turli jihatlarini muhokama qilishga tayyorligi, o'quv tadbirlarida faol ishtirok etishi asosida ko'riladi.

Media savodxonligi o'qituvchisi, o'quvchilar fikrining to'g'riligini yoki ularning media borasidagi didini muxokama qilmaydi, balki ulardan munozaralar uchun tayanch nuqta sifatida foydalanadi. Media savodxonligi o'qituvchisi yosh o'quvchilarining kichik bo'lsada, tajribasini qadrlashi kerak; o'quvchilarni medianing zararli ta'siridan o'zlarini ximoya qilishni o'rganishi uchun yetarli xajmdagi axborot va ko'nikmalarni taqdim qiladi. Garchi yoshlar, ayniqsa shaxar yoshlari, bolalikdanoq kundalik xayotda texnologiyalardan foydalanishga ko'nikkan bo'lsalar-da, zamonaviy yoshlar - bu xodisa bilan to'qnashayotgan birinchi avlod. Ularda media bilan o'zaro ta'sirlashish va atrofdagi narsalarni idrok etish tug'ma qobiliyati yo'q, xuddi bu yana bir Internet-ilovadek. Shunday ekan, texnik moslamalar va Internetga kirish imkoniyati taqdim etilar ekan, mediadan xavfsiz va to'g'ri foydalanish bo'yicha qo'llanma ham berilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Komilov, J., Isaeva, G., Jonzokova, S., Nosirova, D., & Suleymanova, R. (2021). Innovative approaches of psychological training of young sportsmen to the competitions. *Ilkogretim Online*, 20(3).
2. Suleymanova, R. (2023). PEDAGOGICAL ASPECTS OF FORMING MEDIA EDUCATION LITERACY. *Science and innovation*, 2(B3), 199-203.
3. Dusbekovna, S. R. N., & Anvarovna, J. S. (2022). COLLABORATIVE LEARNING METHODOLOGY BASED ON THE DEVELOPMENT OF STRATEGIC COMPETENCE. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1797-1803.
4. Dusbekovna, S. R. N., & Anvarovna, J. S. (2022). COLLABORATIVE LEARNING METHODOLOGY BASED ON THE DEVELOPMENT OF STRATEGIC COMPETENCE. *Journal of Pharmaceutical Negative Results*, 1797-1803.
5. Ra'no, D. S., Khidirova, M. Q., Nosirova, D. S., & Jonzoqova, S. A. COLLABORATIVE LEARNING TECHNOLOGY BASED ON THE CONTENT OF THE FORMATION OF STRATEGIC COMPETENCE.
6. Axatov, A. P., & Tiшликов, С. А. (2016). Методы повышения достоверности передачи и обработки информации в системах электронного документооборота на основе нечеткой семантической гиперсети. *Проблемы вычислительной и прикладной математики*, (3), 10-19.
7. Тишликов, С. А., Жуманов, И. И., & Юлдошев, О. (2012). Контроль достоверности информации электронных документов на основе нейронечеткой семантической гиперсети. *Химическая технология. Контроль и управление*, (6), 38.

8. Ахатов, А. Р., & Тишликов, С. А. (2015). Оптимизация достоверности передачи и обработки электронных документов на основе свойств моделей переходного процесса. *Химическая технология. Контроль и управление», ТГТУ,(1), 61.*
9. Жуманов, И. И., & Тишликов, С. А. (2011). Интерактивное обнаружение и исправление ошибок в текстах систем электронного документооборота.«. *Илмий тадқиқотлар ахборот-номаси», СамДУ, Самарқанд,(1).*
10. Isroil, J., & Khusan, K. (2020, November). Increasing the Reliability of Full Text Documents Based on the Use of Mechanisms for Extraction of Statistical and Semantic Links of Elements. In *2020 International Conference on Information Science and Communications Technologies (ICISCT) (pp. 1-5). IEEE.*
11. Jumanov, I. I., Karshiev, K. B., & Tishlikov, S. (2019). A Examination of the Efficiency of Algorithms for Increasing the Reliability of Information on Criteria of Harness and the Cost of Processing Electronic Documents. *International Journal of Recent Technology and Engineering (IJRTE), 28(2).*
12. Eshbaevich, T. D. Gulistan State University, 120100, 4th microdistrict, Gulistan city, Syrdarya region, Uzbekistan E-mail: doniyor120373@ gmail. com Abstract. The article describes the creation of modern e-learning resources for educational process, their purpose, content, structure and stages of creation. The article also gives recommendations on how to create e-learning resources, and. *Pedagogika, 21.*
13. Toshtemirov, D. E., Isaeva, G. P., Akmalxo'ja, M. A., Saidov, S. S., & Qarshieva, Y. A. (2022). METHODOLOGY OF CREATION AND USE OF E-LEARNING RESOURCES. *International Journal of Mechanical Engineering, 7(2), 1829-1832.*
14. Kodirova, M. M., & Anvarova, S. (2024). TIBBIY MALAKALI MUTAXASISLARNI TAYORLASHDA UMUMIY TIBBIY PEDAGOGIKADAN FOYDALANISH MECHANIZMI.(KOMMUNAL VA MEHNAT GIGIYENASI FANINI OQITISH MISOLIDA). *Ta'lim innovatsiyasi va integratsiyasi, 20(4), 59-63.*
15. Kodirova, M. M., & Muxammadova, G. Q. (2024). PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR TIZIMINING TIBBIYOT FANLARINI O 'QITISHDAGI O 'RNI (Kommunal va Mehnat gigiyenasi dars mashg'ulotlarini organayzerlar asosida). *PEDAGOGS, 53(1), 37-41.*
16. Muxammadova, G. Q., & Kodirova, M. M. (2023). ISHLAB CHIQRISH SANOAT KORXONALARINI AHOLI YASHASH JOYLARI ATMOSFERA HAVOSIGA TASIRI. *Экономика и социум, (11 (114)-2), 274-279.*
17. Mukhammadova, G. Q., Kodirova, M. M., & Boqijonov, F. A. (2024). THE EFFECT OF INDUSTRIAL ENTERPRISES ON ATMOSPHERIC AIR. *British Journal of Global Ecology and Sustainable Development, 28, 5-9.*
18. Eshbayevich, T. D., & Baxtiboyevich, X. B. THE USE OF ELECTRONIC INFORMATION RESOURCES IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Pedagogika,*
19. Saidov, J., Ishchanova, I., Temirxolova, B., & Nurmammedova, Z. (2024). BILIMLAR BAZASINING ASOSIY XUSUSIYATLARI VA ULARGA OID LOYIHALASH. *Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 3(7), 23-27.*